



ITALYAN TILIDA BOG‘LOVCHILARNING VAZIFASI VA TURLARI

Xolmirzayeva Sevinch Sherzod qizi

O‘zDJTU, 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: B.Ergashova

Annotatsiya. Ushbu maqola italyan tilidagi bog‘lovchi so‘zlarning (*connettivi*) gapdagi o‘rnini shu bilan birgalikda ularning matn izchilligi va yaxlitligini oshirishdagi ahamiyatini o‘zida yoritib beradi. Bog‘lovchi so‘zlar gaplar va g‘oyalar o‘rtasida mantiqiy bog‘lanishlarni o‘rnatishda muhim rol o‘ynaydi, bu esa yozuv va nutqdagi aniqlik va ravonlikni yaxshilaydi. Ushbu ilmiy maqola bog‘lovchi so‘zlarni qo‘shimcha, zidlovchi, sabab va ketma-ketlik kabi turlarga ajratgan holda, ularning turli kontekstlardagi qo‘llanishini misollar bilan ochib beradi. Ularning vazifasi va joylashuvini o‘rganish orqali maqola ushbu lingvistik vositalarni, nafaqat ona tilida (ya‘ni italyan tilida) so‘zlashuvchilar, balki til o‘rganuvchilar uchun ham, o‘zlashtirishning muhimligini aniqlashga ko‘maklashadi.

Kalit so‘zlar: *Italyan tili, bog‘lovchi so‘zlar, izchillik, yaxlitlik, connettivi, lingvistik vositalar, til o‘rganish jarayoni.*

Italyan tilida boshqa til tuzilmalari kabi gapni mantiqiy jihatdan to‘g‘ri tuzish, fikrni aniq ifodalash uchun bog‘lovchi turlarini bilish va undan o‘rinli foydalana olish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Italyantilida "connettivi", ya'nibog‘lovchiso‘zlar, og‘zaki va yozma muloqotda izchillik va yaxlitlikni yaratishda muhim rol o‘ynaydi. "E" (va), "ma" (ammo), "quindi" (shuninguchun) kabi ushbu so‘z va iboralar gaplarni, jummalarni va g‘oyalarni bir-biriga bog‘lab, fikr oqimining silliq bo‘lishini ta‘minlaydi. Ular bo‘lmasa, muloqot tarqoq va uzilgan ko‘rinishi mumkin, bu esa tinglovchi yoki o‘quvchi uchun fikrlarning mantiqiy bog‘lanilishi tushunishni qiyinlashtiradi. Misol uchun Janni Rodarining “*Favolealtelefono* (Telefonda aytilgan ertaklar)” kitobida berilgan quyidagi matnda ham bog‘lovchilarning uch turini ko‘rib tahlil qilishimiz mumkin:

“Una volta, a Busto Arsizio, la gente era preoccupata **perché** i bambini rompevano tutto. Non parliamo delle suole delle scarpe, dei pantaloni e delle cartelle scolastiche: rompevano i vetri giocando alla palla, rompevano i piatti a tavola e i bicchieri al bar, e non rompevano i muri **solo perché** non avevano martelli a disposizione [1].”

“**Perche**” - Bu sabab bog‘lovchi bo‘lib, odamlarning tashvishini ko‘rsatib kelmoqda. Aynan belgilangan qismda nima sababdan odamlar tashvishlanishgani (bolalar hamma narsani sindirishgani) izohlab kelmoqda.

“**E**”- Bu bog‘lovchi bolalarning qilgan turli harakatlarini bog‘laydi (oynalarni sindirish, idishlarni sindirish va hokazo). Matnda bir necha marta bolalarning sindirgan narsalarini sanash uchun ham ishlatilgan.

“**Solo perche**” - Bu ham sabab bog‘lovchisi bo‘lib, nima uchun devorlarni sindirmaganliklarini tushuntiradi. "faqat chunki ular qo‘llarida bolg‘a yo‘q edi" degan gap bu xatti-harakatning yo‘qligini sababini anglatib kelgan.



Bog‘lovchi so‘zlar nafaqat gaplar o‘rtasidagi aloqalarni – biriktiruv, zidlovchi, sabab yoki ketma-ketlik bo‘lsin – ko‘rsatishda muhim, balki auditoriyani izchil ravishda mulohaza orqali yo‘naltirish uchun ham juda zarurdir[2]. Ushbu lingvistik vositalarni yaxshi foydalana olish, so‘zlovchilar va yozuvchilarga o‘z fikrlarini yanada, nozik va ta'sirli tarzda ifodalash imkonini beradi, bu esa “*connettivi*” nafaqat italyan tilida so‘zlashuvchilar, balki italyan tilini o‘rganuvchilar uchun ham muhimligini ko‘rsatadi. Bog‘lovchilarning italyan tilidagi gaplarda qanchalik muhimligini Italo Kalvinoning “*Marcovaldo*” asarida keltirilgan quyidagi jumla orqali ko‘rishimiz mumkin:

“E così andando, cogli occhi agli uccelli che volavano, si trovò in mezzo a un crocevia, col semaforo rosso, tra le macchine, e fu a un pelo dall’essere investito. Mentre un vigile con la faccia paonazza gli prendeva nome e indirizzo sul taccuino, Marcovaldo cercò ancora con lo sguardo quelle ali nel cielo, ma erano scomparse [3].”

“**E cosi**” - Bu ketma-ketlik bog‘lovchisi, yangi harakatni kiritish uchun ishlatilgan, bu esa o‘quvchiga hikoyaning davomiyligini anglashga imkon beradi. Ushbu bog‘lovchi bilan Marcovaldoning turli harakatlari o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatilgan.

“**Mentre**” - vaqt bog‘lovchisi bir vaqtning o‘zida sodir bo‘layotgan ikki harakatni ko‘rsatib kelgan. Bu holda, politsiyachi Marcovaldoning ma'lumotlarini olayotgani va Marcovaldo osmondagi qushlarni izlayotgani haqida so‘z yuritadi. Bu sahnaning muhitini aks ettirishga yordam bergan va Marcovaldoning atrofidagi voqealardan to‘liq bexabarligini ko‘rsatilgan.

“**E**” -bog‘lovchi harakatlarni birlashtirgan va hikoyaning ko‘proq izchil bo‘lishiga yordam bergan.

Italyan tilida bog‘lovchilar biriktiruv, zidlov, sabab, shart, ketma-ketlik kabi turlarga bo‘linadi [4]. Biriktiruv bog‘lovchilari- bu gaplar yoki nutq qismlarini bog‘lash uchun ishlatiladigan so‘zlar yoki ifodalardir. Ular qo‘shimcha ma'lumotlarni gap mazmuniga kiritishga va bir xil ahamiyatga ega bo‘lgan elementlarni birlashtirishga xizmat qiladi [5]. Misoluchun:

“E”	Va	Sono andato al mercato e ho comprato della frutta
“Anche”	Ham	Ho visto Maria, e anche Giovanni era presente
“Inoltre”	Bundan tashqari	L'albergo è molto bello; inoltre , si trova in una posizione centrale
“Per di piu”	Shu bilan birgalikda	Fa caldo oggi; per di più , non c'è nemmeno vento
“non solo... ma anche”	nafaqat...ham	Non solo ha vinto la gara, ma ha anche battuto il record



Biriktiruv bog‘lovchilar italyan adabiyotida keng qo‘llaniladigan bog‘lovchi turi ham hisoblanadi. Janni rodarining “*Favole al telefono*” to‘plamiga kiritilgan “*Giacomo di cristallo*” hikoyasida ushbu holatni kengroq ko‘rishimiz mumkin:

“I muri della cella in cui Giacomo era stato rinchiuso diventarono trasparenti, e dopo di loro anche i muri del carcere, e infine anche le mura esterne. La gente che passava accanto alla prigionie vedeva Giacomo seduto sul suo sgabello, come se anche la prigionie fosse di cristallo, e continuava a leggere i suoi pensieri [6].”

“E” - biriktiruv bog‘lovchisi matnda bir necha bor uchraydi va turli harakatlar yoki tasvirlarni bog‘lashda qo‘llanilgan ya’ni harakatlar bir-biriga qo‘shilib kelishini ko‘rsatgan.

Bundan tashqari italyan tilida zidlov, sabab, shart va ketma-ketlikni ifodalovchi bog‘lovchilar ham mavjud bo‘lib, ular quyidagi jadval orqali yoritilib beriladi:

<p>perché - (chunki) dato che - (chunki) poiché - (sababi) siccome - (chunki) visto che - (ko‘rib)</p>	<p>Sabab bog‘lovchilari: asosiy gapni sababni ko‘rsatadigan qo‘shimcha gap bilan bog‘laydi.</p>	<p>Poiché la temperatura sta aumentando, il ghiaccio si sta sciogliendo.</p>
<p>se - (agar) nel caso che - (agar bo‘lsa) qualora - (agar) a patto che - (shart bilan) purché - (shartbilan)</p>	<p>Shartbog‘lovchilari: birharakatningyokihodisanin gboshqabirharakatyokihodisa uchunshartsifatidako‘rsatishd aishlatiladi.</p>	<p>Se piove, resterò a casa.</p>
<p>prima di - (...dan oldin) dopo - (keyin) poi - (keyin) infine - (oxirida) successivamente - (keyin)</p>	<p>Ketma-ketlik bog‘lovchilar voqealar yoki harakatlar orasidagi tartibni ko‘rsatadi.</p>	<p>Prima di andare a letto, leggo un libro.</p>
<p>ma - (lekin) tuttavia - (biroq) però - (ammo) invece - (aksincha) sebbene - (garchi)</p>	<p>Zidlovbog‘lovchilar (connettiviavversativi) qarama-qarshifikrlar, g‘oyalar yoki harakatlar o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Ular biror fikrga qarshi bo‘lgan boshqa fikrni ifodalashga yordam beradi.</p>	<p>Lavoro molto, però non guadagno abbastanza.</p>



Xulosa qilib aytiladigan bo‘lsa, italyan tilida bog‘lovchilar huddi o‘zbek tilidagi kabi muallif gaplarning mazmunini va g‘oyalarining tashkil qilishini aniqroq qilib ko‘rsatib beradi [7]. Bu esa matnni tushunarliroq qiladi va o‘quvchiga turli fikrlar qanday bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Misol uchun: *Giovanni ha studiato molto per l'esame, quindi è riuscito a superarlo con un buon voto* (ushbu gapda “quindi” bog‘lovchisi ikkita gapni bog‘lab, Giovannining tayyorgarligi va imtihondagi natijasi o‘rtasidagi sabab-natija munosabatini aniqroq ko‘rsatib beryapdi). Ba'zi bog‘lovchilar bir fikrni boshqalaridan ko‘ra muhimroq qilib ko‘rsatish uchun ishlatiladi, ya'ni ma'lumotlar o‘rtasida ma'lum bir ierarxiyani hosil qiladi. Masalan, *“in particolare”* (xususan) yoki *“anzi”* (aksincha) so‘zlari o‘rganuvchining e'tiborini ma'lum bir fikrga qaratishga yordam beradi. Italov Kalvinoning “Marcovaldo ovvero Le stagioni in citta” asarida ushbu bog‘lovchilarning bajarib kelgan vazifasini aniqroq ko‘rishimiz mumkin:

“Dietro, sul portapacchi, aveva legato il vaso, e bici uomo pianta parevano una cosa sola, **anzi** l'uomo ingobbito e infagottato scompariva, e si vedeva solo una pianta in bicicletta [8].”

“Anzi” - Bu bog‘lovchi avvalgi gapni kuchaytirish va aniqlashtirish uchun ishlatilgan. Bu holda, ingobbito va infagottato odamning g‘oyib bo‘lishi va diqqatning o‘simlikka o‘tishiga urg‘u beradi. “Balki”ni qo‘llash orqali, matn odamning ko‘rinishi bilan o‘simlik o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ko‘rsatishga harakat qilingan.

Bog‘lovchilar (connettivi) uchalatilda ham gaplarni bog‘lashda muhim rol o‘ynaydi. Lekin ularning gap ichida joylashuvi va qo‘llanish tartibi tildan tilga o‘zgaradi. Misol uchun italyan tilida *e* (va), *ma* (lekin), *perché* (chunki) kabi bog‘lovchilar odatda gapning o‘rtasida yoki boshida ishlatiladi. Masalan:

Sono andato al mercato e ho comprato del pane.

(Men bozorda bo‘ldim **va** non sotib oldim.)

Shuningdek, subordinatsion bog‘lovchilar, masalan, *se* (agar), *quando* (qachon) kabilar yordamida qo‘shimcha gaplar kiritiladi. Bu bog‘lovchilar ko‘pincha vergul bilan ajratiladi: *Se piove, non andremo al parco* (Agar yomg‘ir yog‘sa, biz parkka bormaymiz. Jahon tili hisoblangan ingliz tilida bog‘lovchilar *and* (va), *but* (lekin), *because* (chunki) kabilar huddi italyan tilidek gaplar, so‘z birikmalari yoki mustaqil jumalarni bog‘lash uchun ishlatiladi: *I went to the market **and** bought some bread.*(Men bozorda bo‘ldim **va** non sotib oldim.) Subordinatsion bog‘lovchilar, *if* (agar), *although* (garchi) mustaqil bo‘lmagan gaplarni kiritadi va ular odatda o‘zlariga tegishli gaplardan oldin keladi: *If it rains, we won't go to the park.* (Agar yomg‘ir yog‘sa, biz parkka bormaymiz.) O‘zbek tilidagi bog‘lovchilar *va* (va), *lekin* (lekin), *chunki* (chunki) kabi so‘zlar ko‘pincha ingliz tiliga o‘xshash tarzda gap o‘rtasida ishlatiladi: *Men bozorga bordim **va** non sotib oldim.* Subordinatsion shakldagi bog‘lovchilar, masalan, *agar*, *qachonki* gapning boshida yoki o‘rtasida kelishi mumkin, bu italyan va ingliz tillariga nisbatan bir oz sekinroq holda qo‘llaniladi: *Agar yomg‘ir yog‘sa, biz parkga bormaymiz.*

Yomg‘ir yog‘sa, biz parkga bormaymiz.

(Bu shakl ham to‘g‘ri hisoblanadi va bog‘lovchi boshqa joyda bo‘lishi mumkin.)



Bog‘lovchi – gap bo‘laklari va soda gaplarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘z turkumining biri. Boshqa tillarda bo‘lgani kabi italyan tilida ham bog‘lovchi, so‘zlar orasidagi, gaplar orasidagi sintaktik munosabatni ta‘minlaydi va ma‘lum bir grammatik ma‘noni ifodalaydi [9]. O‘zbek tili gap tuzilishida ushbu yordamchi so‘zlar ko‘proq erkinroq foydalanilsa Italyan va Ingliz tillarida aniq joylashuvga ega bo‘ladi. “Ma”, “pero” kabilar oldidan italyan tilida vergul ishlatilishi odatiy holat bo‘lsa, Ingliz va O‘zbek tillarida buuncha qat‘iy grammatik qoida hisoblanmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gianni Rodari (1993). Favole al telefono. Edizioni EL, S. Dorligo della Valle (Trieste)
2. N.Mahmudov Onatili (Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchundarslik); T. Fan; 2009- yil, 87- 88 bet;
3. Italo Calvino (1993). Marcovaldo ovvero Le stagioni in citta. Palomar S.r.l. e Arnoldo Mondadori Editore S.p.A., Milano
4. Maria Silvia Rati. I connettivi testuali nella didattica scolastica: riflessioni e proposte. Italiano a scuola, 2(2020), pp. 1-18
5. Cannavò, M., & De Rosa, L. (2010). *Grammatica italiana per stranieri*. Bologna: Zanichelli
6. Gianni Rodari (1993). “Favole al telefono”, *Giacomo di cristallo*. Edizioni EL, S. Dorligo della Valle (Trieste)
7. N.Mahmudov Ona tili (Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik); T. Fan; 2009- yil, 87- 88 bet;
8. Italo Kalvino (1993). Marcovaldo ovvero Le stagioni in citta. Palomar S.r.l. e Arnoldo Mondadori Editore S.p.A., Milano, 103-bet
9. Usmanov A.K. O‘zbek tilida vazifadosh bog‘lovchilarning uslubiy xususiyatlari. Finland, Helsinki international scientific online conference "SUSTAINABILITY OF EDUCATION SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY"